

Andijon viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyun

2020- yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **65,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,5** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-iyunda **4508** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **38,8** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoatda 1594 ta, savdoda 1435 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 588 ta, qurilishda 268 ta, yashash va ovqatlanishda 170 ta, tashish va saqlashda 118 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Sanoat
35,4 %



Savdo
31,8 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
13,0 %



Qurilish
5,9 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
3,8 %



Tashish va saqlash
2,6 %

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	25729	29296	3567
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3248	4508	1260
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	66,9	65,5	-1,4
Sanoat	%	18,9	18,3	-0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,3	98,3	-1,0
Investitsiya	%	49,4	73,9	24,5
Qurilish	%	95,1	95,0	-0,1
Savdo	%	88,8	88,6	-0,2
Xizmatlar	%	69,5	64,7	-4,8
Yuk tashish	%	94,5	95,2	0,7
Yuk aylanmasi	%	70,3	66,9	-3,4
Yo'lovchi tashish	%	97,4	97,4	0,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,1	97,1	1,0
Eksport	%	67,7	41,0	-26,7
Import	%	14,5	10,9	-3,6



2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Andijon shahrida - 1152 ta, Asaka tumanida - 435 ta, Shahrixon tumanida - 312 ta, Baliqchi tumanida - 277 ta, Jalaquduq tumanida - 273 ta va Qo'rg'on tepa tumanida - 252 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Xonobod shahrida - 78 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+;-)
Andijon viloyati	3248	4508	1260
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	974	1152	178
Xonobod sh.	63	78	15
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	156	219	63
Andijon	236	249	13
Baliqchi	142	277	135
Bo'ston	63	203	140
Buloqboshi	83	173	90
Jalaquduq	130	273	143
Izboskan	197	226	29
Ulug'nor	42	105	63
Qo'rgontepa	175	252	77
Asaka	286	435	149
Marhamat	174	186	12
Shahrixon	256	312	56
Paxtaobod	145	167	22
Xo'jaobod	126	201	75



**2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri - 25,6 %, Asaka tumani - 9,7 %, Shahrixon tumani 6,9 %, Baliqchi tumani - 6,1 %, Jalaquduq tumani – 6,1 %, Qo'rg'ontepa tumani - 5,6 %, Andijon tumani - 5,5 %, Izboskan tumani - 5,0 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+;-)
Jami	3248	4508	1260
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	127	588	461
Sanoat	943	1594	651
Qurilish	367	268	-99
Savdo	1288	1435	147
Tashish va saqlash	110	118	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	134	170	36
Axborot va aloqa	56	65	9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	62	66	4
Boshqa faoliyat turlari	161	204	43

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Andijon sh.	974	1152	178
Asaka tumani	286	435	149
Shahrixon tumani	256	312	56
Baliqchi tumani	142	277	135
Jalaquduq tumani	130	273	143
Qo'rg'ontepa tumani	175	252	77
Andijon tumani	236	249	13
Izboskan tumani	197	226	29

2020- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 1152 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Andijon shahrida 23,5 birlik, Ulug`nor tumanida 21,3 birlik, Xo`jaobod tumanida 15,6 birlik. Bo'ston tumanida 14,6 birlik, Xonobod shahrida 13,6 birlik, Asaka tumanida 12,4 birlik, Baliqchi tumanida 12,0 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,6 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



• **Eng yuqori ko'rsatkich**
Andijon shahri - 23,5 birlik;

• **O'rtacha ko'rsatkich**
Marhamat tumani - 11,2 birlik;


• **Eng past ko'rsatkich**
Izboskan tumani - 7,6 birlik;

Bundan ko'rinib turibdiki, Andijon shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Izboskan tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar-iyun holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 65,5 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-iyunida 66,9 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikni
tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	18,3	95,0	64,7	73,9
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	20,3	92,3	35,8	62,9
Xonobod sh.	10,2	99,8	95,0	84,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	52,8	98,4	95,9	39,6
Andijon	66,3	92,9	92,6	75,8
Baliqchi	41,2	100,0	97,7	93,1
Bo'ston	66,0	98,8	93,2	63,2
Buloqboshi	100,0	100,0	95,8	90,9
Jalaquduq	69,4	81,3	97,5	77,8
Izboskan	91,4	100,0	96,0	62,0
Ulugnor	63,2	70,2	97,3	90,5
Qo'rgontepa	36,7	98,0	96,7	93,8
Asaka	2,0	100,0	94,6	41,3
Marhamat	58,5	100,0	98,6	72,6
Shahrixon	82,9	100,0	97,6	88,4
Paxtaobod	66,7	100,0	97,1	93,5
Xo'jaobod	75,1	100,0	96,2	82,7

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100,0 %),
Izboskan (91,4 %),
Shahrixon (82,9 %),
Xo'jaobod (75,1 %),
Jalaquduq (69,4 %) va
Paxtaobod (66,7 %)
tumanlarida.

Qurilishda-


Baliqchi (100,0 %),
Buloqboshi (100,0 %),
Izboskan (100,0 %),
Asaka (100,0 %),
Marhamat (100,0 %)
Shahrixon (100,0 %) va
Paxtaobod (100,0 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-

Marhamat (98,6 %),
Baliqchi (97,7 %),
Shahrixon (97,6 %),
Jalaquduq (97,5 %),
Ulug'nor (97,3 %) va
Paxtaobod (97,1 %)
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-iyunida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Baliqchi tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Andijon tumanida - 97,1 %, Paxtaobod tumanida - 90,9 %, Ulug`nor tumanida - 90,4 %, Marhamat tumanida - 87,3 %, Jalaquduq tumanida - 73,2 %, Shahrixon tumanida - 64,2 % ni, eng past ko'rsatkich Xonobod shahrida - 10,0 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Jalaquduq tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Baliqchi tumanida - 100,0 %, Izboskan tumanida - 100,0 %, Ulug'nor tumanida - 99,4 %, Bo'ston tumanida - 94,6 %, Paxtaobod - 94,4 %. Eng past ko'rsatkich Asaka tumanida - 0,6 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (543,9 mlrd. so'm), Izboskan (327,8 mlrd. so'm), Andijon (305,3 mlrd. so'm), Shahrixon (272,2 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (219,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xonobod shahrida (62,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bulqoboshi tumani (100,0 %), Izboskan tumani (91,4 %), Shahrixon tumani (82,9 %), Xo'jaobod tumani (75,1 %), Jalaquduq tumani (69,4 %) va Paxtaobod (66,7 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (2,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri - 1600,4 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 %), Shahrixon tumani 878,5 mlrd. so'm (99,9 %), Asaka tumani 689,7 mlrd. so'm (97,0 %) va Qo'rg'ontepa tumani 495,4 mlrd. so'm (100,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri - 587,5 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 %), Andijon tumani 289,1 mlrd. so'm (109,4 %), Shahrixon tumani 171,4 mlrd. so'm (107,0 %), Paxtaobod tumani 114,2 mlrd. so'm (146,1 %) hamda Marhamat tumanida 91,2 mlrd. so'm (107,1 %) qayd etildi.





2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri - 988,0 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 86,6 %), Asaka tumani 271,0 mlrd. so'm (110,6 %), Shahrixon tumani 263,3 mlrd. so'm (105,8 %), Baliqchi tumani 238,9 mlrd. so'm (104,6 %) va Andijon 237,4 mlrd. so'm (106,3 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1034** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020- yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 3,9 % (40 ta.), sanoatda - 19,8 % (205 ta), qurilishda - 10,2 % (106 ta), savdoda - 33,7 % (348 ta), xizmatlar sohasida - 32,4 % (335 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2020- yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 14,5 punktga, sanoat korxonalarida 4,8 punktga, savdoda 15,0 punktga, xizmatlar sohasida 0,7 punktga oshdi. Aksincha qurilish korxonalarida 6,0 punktga pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,5 punktga, sanoat sohasida 25,0 punktga, qurilish korxonalarida 8,9 punktga, savdoda 4,3 punktga, xizmatlar sohasi 7,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6,0 punktga, xizmatlar sohasi 11,3 punktga, savdo sohasi 5,0 punktga, sanoat korxonalari 11,0 punktga, qurilish korxonalari 16,7 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 1,6 punktga, sanoat sohasida 16,5 punktga, savdoda 0,2 punktga oshdi. Aksincha qurilish korxonalarida 9,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,0 punktga kamayishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020- yilning II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **250** ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 78 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 31,2 % i), qurilish - 14 ta (5,6 % i), savdo - 93 ta (37,2 % i) va xizmatlar - 42 ta (16,8 %), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi - 23 ta (9,2%).

2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 34,8 punktga oshdi, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan sanoat korxonalari 16,5 punktga, qurilish korxonalari 8,2 punktga, savdo sohasi 8,9 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 23,6 punktga, xizmatlar sohasida 14,3 punktga pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar xizmatlar sohasida 15,5 punktga, savdo sohasida 6,4 punktga, qurilish korxonalari 21,4 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 11,2 punktga, sanoat korxonalari 4,8 punktga pasayishi kuzatildi.



2019-2020- yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3,8 punktga oshdi, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3,8 punktga kamaydi, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdo sohasida 1,6 punktga, sanoat korxonalari 1,3 punktga o'sishi kuzatildi.



2019-2020- yillar II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da





**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Tel.: (0374) 224-82-49